



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
INGLIZ TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

*Umarova Zulayho Chorshanbi qizining
“5220100 filologiya(ingliz tili)” ta`lim yo`nalishi bo`yicha
bakalavr darajasini olish uchun
”Sifat + ot” so`z birikmalarining
tahlili
mavzusida yozgan*

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar : kat.o`q. Shukurova Z.

“Himoyaga tavsiya etildi”
Roman German filologiyasi fakulteti
dekani _____ dots.. D. Jo`rayev
“ _____ ” _____ 2012 yil

Qarshi shahri 2012 yil

Mundarija:

Kirish	3-5
I BOB. Soʻz birikmasi haqida umumiy tushuncha	
1.1 Soʻz birikmasi nutq birligi sifatida	6-10
1.2. Soʻz birikmasi va qoʻshma soʻzlar oʻrtasidagi funktsional oʻxshashlik va farqlar	11-13
1.3 Soʻz birikmasi komponentlari orasidagi sintetik munosabatlar	14-21
II Bob. “Sifat+ot” birikmasining sintaktik-semantik tahlili	
2.1 Soʻz birikmasining turlari.....	22-23
2.2 Sifat va uning boshqa soʻzlar bilan birikma hosil qilishi.....	24-29
2.3 ”Sifat + ot” birikmasining sintaktik-semantik tahlili	30-38
Xulosa	39-40
Ilmiy adabiyotlar.....	41-42
Badiiy adabiyotlar va lugʻat.....	43

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar va yuqori malakali intellektual barkamol ablodni tarbiyalashda davlat siyosatining o'rnini va rolini xalqaro jamoatchilikning o'rganishi va tanishishini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan "Bilimli va intellektual barkamol avlodni tayyorlash – mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning eng muhim omili" mavzusidagi Xalqaro konferensiyaning ochilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov so'zlagan nutqlarida ta'kidlaganlaridek, "...oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz --- mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangikumiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham --- bularning barcha-barchasi, avvalombor, yangiavlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir"¹.

Barkamol avlod tarbiyasi, intellektual salohiyatini yuksaltirish vazifasining, so'zsiz, ilmu-fan taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Bu, albatta, gumanitar fanlarning ajralmas qismi bo'lgan tilshunoslikka ham oiddir. Mamlakatimizda keyingi yillarda xorijiy tillar, ayniqsa, ingliz tilining tizimi, muloqot qoidalarini ilmiy va amaliy tadqiq qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zotan, zamonaviy tilshunoslik uchun lisoniy hodisalarni sintetik yondashuv asosida, ularning ko'p jihatli xususiyatlarini tizimli ravishda, nutqiy muloqot sharoitida bevosita va bilvosita namoyon bo'lishini ta'minlovchi asosiy omillarini inobatga olgan holda tadqiq qilish amaliyoti kengo'rin egallamoqda. Tiil birliklarining bunday kengqamrovli o'rganilishi ularning tub mohiyatini batafsil aniqlash bilan bir qatorda, har bir hodisaning alohida jihatlari, tizimda tutgan o'ziga xos o'rnini belgilash imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishida mavzuning dolzarbligi.

Ingliz tili grammatikasiga oid ba'zi masalalar tilshunos olimlar toimonidan o'rganilganda turli bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Shunday muammoli masalalardan biri sifat+otli birikmalar bilan ham bog'liqdir. Ma'lumki, ingliz tilida sifat+otli birikmalar ko'p olimlar tomonidan o'rganilgan va bu xususida turli hil qarashlar mavjud. Hozirgi zamon ingliz tilida sifat+otli birikmalarni hosil qilishda predloglar ham muhim rol o'ynaydi. Sifat+otli birikmalarni sintaktik-semantik tahlil qilish orqali ularning gap strukturasiidagi o'rni va rolini yoritib berish ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligidir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.

¹ Karimov I.A. Bilimli va intellektual barkamol ablodni tayyorlash-mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning eng muhim omili. –T., "Xalq so'zi", 18.02.2012.

Hozirgi zamon ingliz tilidagi sifat+ot birikmalarni nazariy va amaliy jihatdan sintaktik-semantik mazmun mohiyatiga ko'ra har tomonlama o'rganib chiqish ushbu bitiruv malakaviy ishining maqsadidir.

Yuqoridagi maqsadga erishish ayrim vazifalarni hal qilishni taqozo etadi:

- Ingliz tilida sifat+ot birikmalarni o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarni ko'rib chiqish va ularga munosabat bildirish;

- mavjud nuqtai nazarlarga lisoniy yondashib ularni guruhlariga bo'lish;

- gap qurilishida sifat+otli birikmalarning o'rni va rolini aniqlash;

- ingliz va amerika yozuvchilarining asl nusxadagi badiiy asarlardan tanlab olingan misollardan foydalanib sifat+otli birikmalarni aniqlash va ularning sintaktik-semantik xususiyatlarini har tomonlama o'rganib chiqish;

- sifat+otli birikmalarni o'zbek tiliga tarjima qilishda tug'iladigan muammo va farqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish usullarini izlab topish.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiyligi va amaliy ahamiyati.

Zamonaviy tilshunoslikda ilg'or metodlarning tadbiiq qilinishi natijasida erishilgan natijalarning istiqboli, ulardan tilning asosiy nominativ va kommunikativ vositalaridan biri bo'lgan so'z birikmasini keng miqyosda har bir alohida til uchun xos bo'lgan universal jihatlarini yoritish imkoniyatlarining mavjudligida ko'rinadi.

I BOB. So'z birikmasi haqida umumiy tushuncha.

Tilshunoslik fanida so'z birikmasi grammatikaning sintaksis bo'limida o'rganiladi. Biz quyida sintaksis va uning predmeti haqida taniqli tilshunos olimlarning fikr mulohazalarini keltirib o'tishni lozim deb topdik.

Sintaksis grammatikaning bir qismi bo'lib, so'zlarning bir-biri bilan birikuvchi qonun-qoidalarini, so'z birikmalarini va gaplarning strukturasi, ularning yasaliish usullarini, turlarini o'rganadi.

Garchi grammatikaning sintaksis qismini o'rganish boy tarixga ega bo'lsa-da, ammo sintaksisning predmeti, uning chegarasi kabi masalalarni talqin qilishda tilshunos olimlar orasida hozirgacha yagona fikr yo'q. ba'zi tilshunosla sintaksisning predmeti sifatida faqat so'z birikmasini ko'rsatadilar. Ularning fikricha, gap so'z birikmasining bir turi bo'lib, alohida lingvistik birlikni tashkil etadi².

² М.Н.Петерсон. Очерк синтаксиса русского языка, М. – Л., 1923. И.П.Распопов. О предмете синтаксиса. Ученые записки Башкирского Гос. Университетета.

Ba'zi tilshunoslar esa, sintaksisning predmeti sifatida faqat gapni tan oladilar. Bu olimlarning aytishlaricha, sintaksis, birinchi navbatda, tilning kommunikativ birligi – gapni, gapning turlarini, ularning formasi va mazmunini, gapni bo'laklarga ajratgan masalasini va sintaktik vositalarini o'rganadi³.

Rus tilshunosligida keng tarqalgan fikrga ko'ra, sintaksis grammatikaning so'z birikmasi va gap haqidagi ta'limotni o'z ichiga olgan qismidir. Sintaksis tilning ikki mustaqil yarusi – so'z birikmasi va gapni o'rganadi, ya'ni sintaksisning asosiy predmeti so'z birikmasi va gapdir. Xulosa qilib aytganda, sintaksisning predmeti tilning sintaktik qurilishini o'rganishdir. Til sintaktik qurilishning asosiy xususiyatlaridan biri – uning turg'unligi bo'lib, rivojlanishi tafakkurning rivojlanishi, jamiyat kommunikativ ehtiyojlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq.

Sintaksis fonetika va morfologiya bilan bog'liq. Sintaksisning fonetika bilan aloqasi shundaki, sintaksisning birliklarini tashkil etgan so'z birikmasi va gaplarning "qurilish materiallari" nutq tovushlaridan tashkil topgan. Bundan tashqari, urg'u, ohang va intonatsiya kabi fonetik hodislarning sintaksis uchun ahamiyati kattadir.

Sintaksis bilan morfologiya bir-birini to'ldiruvchi o'zaro bog'liq sohalardir. Morfologiyaning birliklari bo'lgan so'z turkumlari va so'z formalari faqat so'z birikmalari va gapda shakllanadi. Gap bo'laklari bilan so'z turkumlari orasida o'zaro yaqin munosabat mavjudligidir.

Kelishik, son, shaxs kabi morfologik kategoriyalar sintaksis vositalari bo'lgan – moslashuv bilan bog'liq. Morfologiya kabi sintaksisning ham o'z mustaqil birliklari bor. Bular – so'z birikmasi va gapdir. Bu birliklarning o'rganadigan predmeti, vazifalari va tekshiradigan metodlari mavjud. Demak, sintaksisning asosiy vazifalarini quyidagicha ta'riflash mumkin: 1) sintaksis munosabatning turlari va ularning ifodalanishi; 2) so'z birikmasini o'rganish; 3) gap haqidagi ta'limot.

1.1. So'z birikmasi nutq birligi sifatida

Ma'lumki, sintaksis grammatikaning bir qismi bo'lib, unda gap strukturasi, tuzilishi, gap bo'laklari, gap turlari, so'zlarning bir-biri bilan bog'lanish yo'llari, so'z birikmalari o'rganiladi.

Gap haqidagi ta'limot sintaksisning asosidir. So'z birikmasi gapning qurilish materiali vositasi bo'lganligi uchun ham sintaksisda tekshiriladi. Sintaksisda har qanday so'z birikmasi o'rganilavermaydi. Ikki yoki undan ortiq so'zning qo'shilib, qo'shma so'z hosil qilishi leksikologiyaning obyektidir.

³ В.Г.Адмони. Введение в синтаксис современного немецкого языка. М., 1955.

Quyida biz soʻz birikmasi haqida soʻz yuritmoqchimiz. Bu xususda taniqli tilshunos olimlarning fikrlarini oʻrganib chiqamiz⁴.

Tilshunos olim J.Boʻronov soʻz birikmasiga shunday taʼrif beradi: “Gap nutqning eng kichik minimal boʻlagidir. Soʻz, soʻz birikmalari, grammatik formalar, soʻz tartibi va intonatsiya gap strukturasi ajralmas qismidir.”⁴

Nutq protsessida soʻzlar shu tilga xos boʻlgan grammatik xususiyatlar asosida bir-biri bilan bogʻlanadi. Soʻz birikmasi ikki yoki undan ortiq mustaqil maʼno ifodalovchi soʻzlardan tuzilgan, ham grammatik, sintaktik butunlikka ega boʻlgan birlikdir”⁵. Masalan:

The two men walked in the silence gapida quyidagi soʻz birikmalari bor:

- 1) the two men
- 2) walked in the silence.

Soʻz birikmasi haqida boshqa bir tilshunos olim A.Sodiqovning fikri ham yuqorida aytib oʻtilgan taʼrifga mos keladi: “Semantik va grammatik jihatdan oʻzaro sintaktik aloqaga kirishgan ikki yoki undan ortiq mustaqil soʻzlar soʻz birikmasi deyiladi”⁶

Soʻz birikmasi nutq formasi boʻlib, koʻp tillarda ergash bogʻlanish (moslashuv, boshqaruv, bitishuv) asosida hosil boʻladi, bunday soʻz birikmalari hokim va tobe boʻlakdan tashkil topadi. Aniqlanib, toʻldirilib kelayotgan boʻlak hokim, aniqlab, toʻldirib kelayotgan boʻlak tobe hisoblanadi. Soʻroq hokim boʻlakdan tobe boʻlakka beriladi: katta bino – qanday bino?

Soʻz birikmasining komponentalari mustaqil soʻzlardan boʻladi. Yordamchi soʻzlar, jumladan, koʻmakchi soʻzlar, soʻz birikmasining komponenti boʻlolmaydi. Koʻmakchi soʻzlar oʻzlari aloqador boʻlgan mustaqil soʻz bilan birga soʻz birikmasining bir komponenti boʻlib keladi: *Telefon orqali gaplashmoq*.

Soʻz birikmasi soʻz, qoʻshma soʻz, turgʻun birikma va gaplardan farq qiladi.

Soʻz leksik hodisa, soʻz birikmasi grammatik hodisa. Soʻz soʻz birikmasi kabi nominative funksiya bajarib predmet, belgi ish – harakatni umuman ifodalash uchun xizmat qiladi. Soʻz birikmasi esa predmet, belgi, ish – harakatni shu xildagi boshqa predmet, belgi, ish – harakatdan ajratib ifodalaydi. Qiyos qiling: *dala – koʻm-koʻk dala*.

Soʻz abstract maʼnoli boʻlib, birikmaga kirishgach, uning maʼnosi konkretlik tomon siljiydi. Soʻz tarixiy kategoriya boʻlib, til birligidir, soʻz birikmasi esa nutq protsessida hosil boʻladi. Shuning uchun ham u nutq birligi hisoblanadi.

Qoʻshma soʻzlarning komponentalari oʻrtasida grammatik munosabat yoʻq, ular oʻz leksik-semantik mustaqilligini yoʻqotib. Bir bosh urgʻu olib, gapda bir sintaktik vazifani

⁴ Boʻronov J. va boshqalar, *Ingliz tili Grammatikasi*, Toshkent “Oʻqituvchi”, 1974-yil. 288-bet.

⁵ Sodiqov A. va boshqalar, Toshkent “Oʻqituvchi”, 1981-yil 82-bet.

bajaradi. Soʻz birkmasining komponentalari oʻrtasida grammatik munosabat mavjud, ular leksik-semantik mustaqilligini saqlab, oʻz urgʻusiga ega boʻladi. Gapda boshqa-boshqa sintaktik funksiyani bajaradi.

Turgʻun birikmalar butunligicha, yaxlit holda qoʻllanib, til birligi hisoblansa, soʻz birikmasi nutq protsessida hosil boʻladi. Soʻz birikmasidagi soʻzlar oʻz leksik maʼnosini saqlaydi, turgʻun birikma (frazologizm)dagi soʻzlar esa butunicha oʻz maʼnosidan koʻchgan yoki komponentalarning biri oʻz maʼnosini oʻzgartirib yuborgan boʻladi. Qiyos qiling: *qoʻl qoʻymoq – daftarni qoʻymoq*.

Soʻz birikmasi modellari gap tuzish modellari kabi, til birligi boʻlib, konkret soʻz birikmasi ham konkret gap kabi nutq birligi hisoblanadi. Soʻz birikmasi nominative kategoriya boʻlsa, gap kommunikativ kategoriyadir.

Professor B.Mengliyevning soʻz birikmasiga oid mulohazalari ancha ilmiy: “Nutqda tushunchalarni aniqroq va muayyanroq ifodalash zarurati tugʻiladi. Bu esa nisbiy noaniq fikr ifodalovchi soʻzdan nisbiy aniq tushuncha ifodalovchi soʻz birikmasini afzal qilib qoʻyadi. Qiyoslaymiz: oʻqimoq-tez oʻqimoq. Keyingi nutqiy hosilada harakat oʻqimoq soʻzidagiga nisbatan aniqroq. Chunki unda tez soʻzi koʻmaklangan koʻrinadiki, soʻz ham soʻz birikmasi ham tushuncha ifodalaydi. Soʻz ifodalaydigan tushuncha noaniq va kengroq. Chunki oʻqimoq feʼlida harakat ham tez, ham sekin boʻlishi mumkin. Soʻz birikmalarida esa ikki tushuncha oʻz mustaqilliklarini saqlagan holda nisbiy aniq va muayyan harakat ifodalangan

Demak soʻz oʻz maʼnoviy imkoniyatini toʻlaroq va ravshanroq namoyon qilishi uchun boshqa bir mustaqil soʻzga ehtiyoj sezadi. Bu soʻz uning maʼnoviy ehtiyojini qondirmoq uchun ham maʼnoviy, ham Grammatik jihatdan unga muvofiq boʻlmogʻi lozim”⁷.

Taniqli tilshunos olim M.T.Irisqulovning soʻz birikmasiga bergan taʼrifi qisqa va aniq: “Bir-biri bilan sintaktik jihatdan bogʻlangan, ikki yoki undan ortiq mustaqil soʻzlar qoʻshilmasi soʻz birikmasidir”⁸.

Soʻz birikmalari anglatgan maʼnolariga koʻra soʻzlarga oʻxshash boʻlib, ular soʻzlar kabi nominative funksiyasiga ega. Narsa va hodisalarni ularning xususiyatlari bilan birga qoʻshib yasaydi. Soʻz birikmalari gaplardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

- gaplarda birinchi darajali predikativlik munosabati bor ega-kesimda ifoda qilinadi, soʻz birikmalarida 2-darajali predikativlik baʼzan boʻlishi mumkin;
- gaplar bir soʻzdan iborat boʻlishi mumkin. Soʻz birikmasida kamida 2 mustaqil soʻz boʻladi;
- gaplar oʻz ohang tuzilishiga ega, soʻz birikmalarida esa bunday xususiyat yoʻq.

⁷ Mengliyev va boshqalar, “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”, “Yangi asr avlodi” Toshkent, 2009-yil 306-bet
⁸ Irisqulov M.T. “Tilshunoslikka kirish”, “Yangi asr avlodi” Toshkent, 2009-yil 141-bet

Soʻz birikmalari ham soʻzlar kabi narsa, belgi, harakatni yasashga xizmat qiladi. Faqat soʻz birikmalarida maʼno tasvir ancha aniq va ravshandir. Masalan: nor – erkak tuya, gʻunan – ikki yashar ot, ezma – sergap odam.

Shuning uchun lugʻatlarda soʻz birikmalarida soʻzning maʼnosini ochib berishda soʻz birikmalaridan foydalaniladi.

Bir soʻz birikmasi gapda turli oʻrinlarda kela oladi:

1. The two men walked in the silence.
2. We have seen the two men walking in the silence.

Koʻmakchi soʻzlar mustaqil soʻz bilan birgalikda bir element sanaladi. Predloglar ot tipidagi qoʻshilmalar. Masalan: in the evening, at night, in time, for a while kabilar soʻz birikmasi sanalmaydi. As soon as, down for, in front of, on behalf of, in order, in accordance with va shu kabi konstruksiyalar ham soʻz birikmasi hisoblanmaydi. Chunki ular gapda predlog va bogʻlovchi vazifasida keladi. Soʻz birikmalarida soʻzning birikishi erkin boʻladi. Soʻz birikmasi erkin va turgʻun boʻlishi mumkin.

Erkin soʻz birikmalarining maʼnosi komponentlarning maʼnosiga teng boʻlib, komponentlar orasida hokim – tobelik mavjud boʻladi.

Turgʻun soʻz birikmasining maʼnosi bir soʻzga tenglashib, unda hokim – tobelik boʻlmaydi. Turgʻun soʻz birikmasiga misol:

- to take a fancy – qiziqib qolmoq,
- to put up with – chidamoq,
- out of the blue – tomdan tarasha tushganday.

Soʻz birikmasi bilan gap orasida farq kattadir. Soʻz birikmasi nominatsiya funksiyasini bajarishi natijasida soʻzga yaqin turadi va gap singari infomatsion tugallikka ega boʻlmaganligi uchun kommunikativ birlikni tashkil qilmaydi. Bundan tashqari soʻz birikmasi uchun xos boʻlgan quyidagi belgilarni koʻrsatish mumkin:

- a) birdan ortiq mustaqil soʻz;
- b) aʼzolarining maʼno va grammatik jihatdan mosligi;
- c) tobelik;
- d) tushuncha ifodalash.

Soʻz birikmasi bu toʻrt belgisining har biri bilan oʻziga yondosh hodisalarga oʻxshaydi va bir vaqtning oʻzida farqlanadi ham. Masalan, birdan ortiq mustaqil soʻzdan tashkil topganligi bilan soʻzdan farq qilsa, tushuncha ifodalash bilan oʻxshashlik kasb etadi. Gap birdan ortiq mustaqil soʻzning maʼnoviy va grammatik jihatdan tobelanishi asosida ham vujudga keladi.

Lekin u soʻz birikmasidan farqli oʻlaroq fikr ifodalaydi. Demak, soʻz birikmasi bilan uning oʻxshashligi munosabatiga alohida alohida toʻxtalish lozim boʻladi.

Shu oʻrinda soʻz birikmasi va soʻz oʻrtasidagi oʻxshash va farqli tomonlarni koʻrib chiqamiz. Soʻz bir tushunchani ifodalaydi. Soʻz birikmasida esa birdan ortiq tushuncha munosabatga kirishgan holda voqelanadi. Soʻz asosida leksema va morfema hamda ularning birikuv qonuniyati yotsa, soʻz birikmasiga leksamalar birikuvini tartibga soluvchi lisoniy sath asos boʻladi.

Aytilganidek, soʻzda tushuncha maʼno keng va mavhum boʻladi. Soʻz birikmasida esa bu kenglik va mavhumlik bir qadar barham topgan boʻladi. Masalan, qiziq kitob birikmasida kitobning bir belgisi namoyon boʻlgan. Shu jihatdan u muayyanlik kasb etgan, ammo bu muayyanlik nisbiy va biryoqlama. Chunki uning badiiy ilmiylik ham mavhum va noaniq. Qiziq badiiy kitob birikmasida bu belgi ham muayyanlik kasb etadi. Soʻz birikmasida soʻz boshqa soʻzni oʻziga biriktirib kengayishi bilan maʼnoviy torayishi kelib chiqaradi. Demak, soʻz birikmasida shakliy kengayish maʼnoviy torayishni keltirib chiqarsa, soʻzda shakliy torlik maʼnoviy kenglik bilan munosib.

Turgʻun soʻz birikmasida maʼnolar oʻzaro munosabatga kirishar ekan, bunda ular yaxshilanib, bir “vujudga” aylanib ketmaydi. Bir biriga qancha yaqinlashmasin baribir oʻz mustaqilliklarini saqlab qoladi. Masalan, toza havo birikmasida bir maʼno muayyanlik koʻrsatishi uchun xizmat qiladi, lekin baribir bunda ikki tushuncha mavjud. Ikki tushuncha orasidagi munosabat maʼlum bir meʼyor chizigʻidan oʻtsa, ular yaxlit tushunchaga aylanadi. Va bir butun holda maʼno anglatadi. Soʻz birikmasi nutq shakli boʻlib, koʻp tillarda ergash bogʻlanish (moslanish, boshqaruv, bitishuv) asosida hosil boʻladi. Bunday soʻz birikmalari hokim va tobe boʻlakdan tashkil topadi. Aniqlanib, toʻldirilib kelayotgan boʻlak tobe hisoblanadi. Soʻroq hokim boʻlakdan tobe boʻlakka beriladi: katta bino – qanday bino? Soʻz birikmasining komponentlari mustaqil soʻzlardan tashkil topadi. Yordamchi soʻzlar, jumladan koʻmakchi soʻzlar oʻzlari aloqador boʻlgan mustaqil soʻz bilan birga soʻz birikmasining bir komponenti boʻlib keladi. Masalan, telefon orqali gaplashmoq. Soʻz birikmasi soʻz, qoʻshma soʻz, turgʻun birikma va gaplardan farq qiladi.

Soʻz leksik hodisa, soʻz birikmasi grammatik hodisa. Soʻz soʻz birikmasi kabi nominativ funksiya bajarib, predmet, belgi, ish-harakatni umuman ifodalasi uchun xizmat qiladi. Soʻz birikmasi esa predmet, belgi, ish-harakatni shu tildagi boshqa predmet, belgi, ish-harakatdan ajratib ifodalaydi. Qiyoslaymiz: dala – koʻm-koʻk dala.

Soʻz abstrakt maʼnoli boʻlib birikmaga birikadi, uning maʼnosi konkretlik tomon siljiydi. Soʻz tarixiy kategoriya boʻlib, til birligidir. Soʻz birikmasi esa nutq prosessida hosil boʻladi. Shuning uchun ham u nutq birligi hisoblanadi.

Qo'shma so'zlarning komponentlari o'rtasida grammatik munosabat yo'qolib, o'z leksik-semantik mustaqilligini yo'qotib, bir urg'u olib, gapda bir sintaktik vazifani bajaradi. So'z birikmasining komponentlari o'rtasida grammatik munosabat mavjud, ular leksik-semantik mustaqilligini saqlab, o'z urg'usiga ega bo'ladi, gapda boshqa boshqa sintaktik funksiyani bajaradi.

Turg'un birikmalar butunligicha yaxlit holda qo'llanilib, til birligi hisoblansa, so'z birikmasi nutq protsessida hosil bo'ladi. So'z birikmasidagi so'zlar o'z leksik ma'nosini saqlaydi, turg'un birikmadagi so'zlar esa butunicha o'z ma'nosidan ko'chgan yoki komponentlaridan biri o'z ma'nosini o'zgartirib yuborgan bo'ladi. Qiyoslab ko'ramiz: qo'l qo'ymoq – daftarni qo'ymoq.

So'z birikmasi modellari gap tuzish modellari kabi til birligi bo'lib, konkret so'z birikmasi ham konkret gap va nutq birligi hisoblanadi. So'z birikmasi nominativ kategoriya bo'lsa, gap kommunikativ kategoriyadir.

1.2 So'z birikmalari va qo'shma so'zlar o'rtasidagi funksional o'xshashlik va farqlar.

So'zlarning tildagi muayyan qonun-qoidalari asosida o'zaro birikuvidan so'z birikmalari va gap hosil qilinib, ular o'z qurilishi va ifoda mazmuniga ko'ra farqlanadilar. So'z birikmasini tashkil qiluvchi elementlar har xil so'z turkumiga oid bo'lishi mumkin. Masalan, so'z birikmasining har ikkala qismi ham "ot" so'z turkumiga tegishli bo'lishi mumkin, yoki biri sifat ikkinchisi ot, biri fe'l ikkinchisi ot, shuningdek biri predlog ikkinchisi ot, ba'zan esa "predlog+ot+predlog" shaklida ifodalanishi mumkin.

So'z birikmasi strukturasidagi hokim tobelik munosabatiga ko'ra hokim so'z ot bilan ifodalansa otli so'z birikmasi, fe'l bilan ifodalansa fe'lli so'z birikmasi, olmosh bilan ifodalansa

olmoshli soʻz birikmasi, ravish bilan ifodalansa ravishli soʻz birikmasi, son bilan ifodalansa sonli soʻz birikmasi deb ataladi. Ularni tashkil qiluvchi elementlar soniga koʻra kamida 2 ta, koʻpi bilan istalgancha boʻlishi mumkin va xohlagan soʻz turkumi bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: a hand, some boy, play well, on the table, seriously ill, easy to write, write a letter, fifteen days. Shuning uchun qator tilshunos olimlar tomonidan qilingan tadqiqotlarda ilgari surilgan nazariya, yaʼni “Soʻz birikmasi haqida ikkita mustaqil maʼnoli soʻzlardan tashkil topishi kerak” – deya soʻz birikmasini tuzilishi jihatdan chegaralash maqsadga muvofiq emas.⁹ Soʻz birikmasini tuzilishi jihatdan chegaralashning nomunosibligi tufayli unga koʻra ingliz tilidagi ”preposition+noun” birikmasi soʻz birikmasidan chetda qoladi. Vaholanki ”preposition+noun” birikmasi ham soʻz birikmasi hisoblanadi.

Qoʻshma soʻzlarda ham qismlar bir xil soʻz turkumiga va grammatik shaklga ega boʻlishi mumkin. Bu ularning oʻzaro shakliy oʻxshashligidir. Lekin soʻz birikmasidagi qismlar maʼno mustaqilligini saqlagan boʻladi. Qoʻshma soʻz tarkibidagi qismlarning maʼnosi esa saqlanmagan boʻlib, qoʻshma soʻzning umumiy maʼnosi orqali anglanadi.

Masalan:

When the doctor checked her pulse, he noticed that she had a seriouse health problem.

At the new film a premiere a movieger was interviewed about the film (qoʻshma soʻz). Shuningdek, soʻz birikmasi va qoʻshma soʻz oʻrtasidagi farqni koʻrsatib turuvchi omillardan biri grammatik aloqaning mavjudligi boʻlib hisoblanadi. Soʻz birikmasi qismlari orasidagi Grammatik aloqa sezilib turadi, qoʻshma soʻz qismlari orasidagi Grammatik aloqa esa yoʻqolgan boʻladi. Masalan:

soʻz birikmasi:	qoʻshma soʻz:
a brave boy	lazy-boys
a wise decision	a head dress

Mazkur misollar shuni koʻrsatadiki, soʻz birikmalarining qismlari biri ikkisiga tobelanish orqali birikib, grammatik aloqani yuzaga keltirgan. Qoʻshma soʻzlar esa qismlarga ajralmaganligi sababli ular orasida grammatikaloqa mavjud boʻlmaydi. Grammatik aloqaning mavjudligi tufayli soʻz birikmasi qismlarining har biriga alohida alohida soʻroq berish mumkin: to read a book – to read what? Qoʻshma soʻzlarga esa qismlari ajralmaganligi tufayli yaxlit bir savol beriladi. Masalan: a tooth-brush – what?

Soʻz birikmasini qoʻshma soʻzlardan ajratadigan xususiyatlardan yana biri – soʻz urgʻusidir. Soʻz birikmasining qismlari oʻz mustaqil soʻz urgʻusini saqlagan boʻlard. Masalan: to pronounce slowly, a wise speaker, a pretty girl. Qoʻshma soʻzlar esa umumiy bir urgʻuga ega

⁹ Ilysh B. ”The structure of Morden English”, Leningrad, 1971-yil 171-bet.

bo'lardi: a school boy, a classmate. Bundan tashqari, so'z birikmasida qismlar o'z ma'no mustaqilligini saqlagani uchun ulardan birini boshqa so'z bilan almashtirish mumkin: to speak slowly – to speak fast; to understand perfectly – to know perfectly. Qo'shma so'zlarda esa qismlar umumiy ma'no anglatgani uchun ulardan birini boshqa so'z bilan almashtirib bo'lmaydi. Masalan: goalkeeper, highlights, lazy-bones.

So'z birikmasi va qo'shma so'z o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar tadqiq qilinganda bu farq va o'xshashliklar har bir tilning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ochiladi. Shunga ko'ra mazkur tafovut va o'xshashliklar barcha tillar uchun umumiy yoki ayrim tillargagina xos bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbek tiliga ba'zi so'z birikmalari gapdagi o'rniga ko'ra qo'shma so'z vazifasini ham bajarishi mumkin:

a) "Dori bosh og'riqni darrov qoldirdi".

(so'z birikma)

b) "Bosh og'riqni ko'paytirma" dedi rahbarimiz.

(qo'shma so'z)

c) Qiziqchi qizil ishton kiygan edi.

(so'z birikma)

d) Qizil ishton daraxt po'stlog'i orasidagi qurtlarni terib yeydi.

(qo'shma so'z)

Aynan bir so'z birikmasi gapdagi o'rniga ko'ra qo'shma so'z sifatida kelishini ingliz tilida ham kuzatish mumkin. Masalan:

a) They always go to the window and look out. (so'z birikma)

b) Some children like to play ground and their repeat from their old playground, the beautiful, rich food giving cape valley (qo'shma so'z).

Demak, so'z birikmasi va qo'shma so'z o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni ingliz tili hamda o'zbek tili asosida o'rganib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: so'z birikmasi va qo'shma so'z qismi bir xildagi so'z turkumiga oid bo'lishi, ikkalasi ham bir xil shaklga ega bo'lishi mumkin. Lekin so'z birikmasi qismlari ma'no mustaqilligini saqlagan, qo'shma so'z qismlari esa ma'no mustaqilligini saqlamagan bo'ladi. So'z birikmasi qismlari orasida grammatik aloqa mavjud, qo'shma so'zlar orasida esa grammatik aloqa bo'lmaydi. So'z birikmasi qismlari o'z mustaqil so'z urg'usini saqlagan bo'ladi, qo'shma so'zlar esa umumiy bir urg'uga ega bo'ladi. So'z birikmasi qismlari o'z mustaqilligini saqlaganligi uchun ulardan birini boshqa so'z bilan almashtirish mumkin, qo'shma so'zlar esa umumiy bir ma'no ifodalagani uchun ularning qismlaridan birini boshqasi bilan almashtirib bo'lmaydi.

Ayrim so'z birikmalari o'rniga qo'shma so'z vazifasida kelishi o'zbek tilida ham ingliz tilida ham uchrashi mumkin.

1.3. So'z birikmasi komponentlari orasidagi sintaktik munosabatlar.

Turli tillarda mavjud bo'lgan sintaktik munosabatlar dastlab ikki turga bo'linadi: predikativ va nopredikativ bog'lanish gap struktura asosi komponenti ya'ni, ega va kesimning sintaktik munosabatidir. Bular orqali gap hosil qilinadi. Masalan: Men institutda o'qiyman gapida ega va kesim shaxs va sonda moslashib, o'zaro sintaktik munosabatga kirishgan. Nopredikativ bog'lanish bunday xususiyatga ega emas. Bunda so'zlar o'zaro turli usulda va vositalar bilan sintaktik munosabatga kirishadi. Ko'p tillarda so'zlarning gapdagi sintaktik munosabatlarning tiplari deb talqin qilinayotgan teng bog'lanish va ergash bog'lanish nopredikativ bog'lanishning turlaridir.

1. Birinchi tipda, ya'ni teng bog'lanishda grammatik tomondan bir-biriga teng bo'lgan so'zlar o'zaro grammatik munosabatga kirishadi. Tenglanish munosabati, asosan teng bog'lovchilar va sanash revonatsiyasi orqali ifodalanadi. Misol keltiramiz:

O'zbek tilida- yigitlar va qizlar, urush va tinchlik;

Rus tilida – отец и дети, хорошо но дорого.

Ingliz tilida – The lesson finished and teacher went out.

2. Ikkinchi tip – tobelanish (ergashish)da grammatik tomondan teng bo'lmagan so'zlar o'zaro grammatik munosabatga kirishadi. Bu holda elementlarning biri ikkinchisiga tobe bo'lib, uni aniqlaydi, to'ldiradi, aniqlanayotgan element esa tobe bo'ladi. Masalan: o'zbek tilida – tiniq suv, qo'shiq aytmoq, baqirib gapirmoq; rus tilida – длинная дорога, моя книга, работаю честно; ingliz tilida – Long island is a long island. Tobelanish munosabatini ifodalovchi vositalar asosan affikslar, ko'makchilar, fleksiya. So'z tartibi esa intonatsiyadir. Turkiy tillarda sintaktik munosabatlarning tenglanishi esa ergashish tiplaridan o'zgacha sintaktik munosabat mavjud. Bu qaratqich va qaralmish munosabatdir. Tenglanishda grammatik jihatdan teng bo'lgan so'zlar ergashishda esa biri hokim, biri tobe vaziyatdagi bo'laklar sintaktik munosabatga kirishsa qaratqich va qaralmish munosabatlaridagi so'zlar bir-biriga hokim vaziyatda bo'ladi, ya'ni qaratqich kelishigida kelgan so'z o'zi aloqador bo'lgan so'zning III shaxs egalik formasidagi so'z o'zi aloqador bo'lgan so'zning qaratqich kelishigi formasida kelishini talab qiladi. Buni sxemada quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Zulfiyaning kitobi

Qaratqich va qaralmish munosabatining tabiatidan kelib chiqib uni munosabatlashish deb atash mumkin. nopredikativ bog'lanishning tenglashish tipi so'z birikmasi hosil qilmaydi, u gap bo'laklarini uyushtirib keladi. Ergashish va munosabatlashish usuli esa so'z birikmasi hosil qiladi. sintaktik munosabatning turlari haqidagi yuqoridagi fikr tilshunos olim A. Sodiqovga mansub. Demak, olimning fikricha, sintaktik munosabatning ergashish usuli uch xil: moslashuv, boshqaruv, bitishuv. Professor B.Mengliyev bu masalaga boshqacharoq yondashadi. Uning

fikricha, soʻz birikmasida maʼnosi muayyanlashtirilayotgan soʻz hokim va uning maʼnosini muayyanlashtiruvchi soʻz tobe aʼzo deyiladi. Masalan, kitobni oʻqimoq birikmasida kitobni tobe va oʻqimoq hokim aʼzo. Bir soʻz bir nechta soʻzni oʻziga tobe aʼzo sifatida biriktirishi mumkin. Lekin, soʻz birikmasida bir soʻz faqat bir aʼzoga tobe aʼzo sifatida bogʻlanishi mumkin. Masalan, katta chiroyli gulchambar birikmasida gulchambar soʻzi ikkiita soʻzga hokim. Lekin, chiroyli soʻzi bir soʻzga tobe. Hokim mavqaida yuzaga chiqayotgan leksema soʻzining hokim tobe vazifaga yuzaga chiqayotgan leksama esa oʻzining tobe valentligini namoyon qiladi. Hokim va tobe aʼzo vazifasi grammatik shakli va sintaktik oʻrni asosida belgilanadi. Tobe aʼzo oldin kelib, keyingisining maʼnosini izohlashga moslashgan boʻladi va bunga mos Grammatik koʻrsatkich bilan shakllanadi, maʼlum sintaktik oʻringa ega boʻladi. Oʻzbek nutriqa odatda hokim soʻz keyin, tobe soʻz oldin keladi. Nitqiy inversiya, yaʼni hokim va tobe soʻz tartibining buzilish holatidagi soʻz birikmalarigina bundan mustasno. Masalan: oʻqidim kitobni, Dilnoza hamshira kabi soʻz birikmalari hokim soʻz kengayadi va tobe soʻz kengaytiruvchi soʻz deb ham yuritiladi. Kengayuvchi va kengaytiruvchi atamalar nisbiy mohiyatga ega boʻlib, shaklga nisbatan aytilgandagina toʻgʻri boʻladi. Masalan: kitobni oʻqimoq birikmasida oʻqimoq soʻziga yana bir soʻz birikadi va bir soʻz ikkita boʻlib, shakily “yoyilish” yaʼni, kengayishi yuz beradi. Shakliy kengayish esa maʼnoviy torayishni yuzaga keltiradi. Shakl va maʼno dialektikasi yanada yaqqolroq namoyon boʻladi. Chunki “oʻqimoq” leksemasining maʼnosi keng u oʻqiladigan barcha narsalar ustida yuz beradigan tegishli harakatni ifodalaydi. Kitobni oʻqimoq birikmasida esa aytilgan barcha narsalardan asosli, kitob ustida bajaradigan harakat mohiyatla toraygan maʼnosi qoladi. Kengayuvchi atamasini faqat bosh soʻzga kengaytuvchi atamasini faqat oʻrganishgagina moslab qoʻyish ham biryoqlamalik. Zero, kitobni oʻqimoq birikmasida kitob leksemasi tobe, oʻqi leksemasi hokim valentligini namoyon qilganligi kabi unda oʻqimoq soʻzi kitobni soʻz shakli bilan maʼnoviy toraytiruvchi va shakliy kengaytiruvchi vazifasini namoyon qiladi. Zero, kitobni soʻz shakli oʻtimli harakatni ifodalovchi cheksiz leksamalar bilan bogʻlanish imkoniyatiga ega. Oʻqimoq soʻz shakli boʻlib, birikish asosida unda maʼnoviy torayish, shakliy kengayish yuz beradi.

Soʻz birikmasining komponentlari bir biri bilan soʻz formalari, yordamchi soʻzlar, intonatsiya, soʻz tartibi yordamida birikadi. Bu hodisa tilshunoslikda sintaktik munosabat vositalari deb ataladi. Biz bu haqida keyinroq batafsil toʻxtalamiz.

Quyida biz soʻz birikmasi komponentlari, yaʼni aʼzolari orasidagi sintaktik munosabatlar xususida fikr yuritmoqchimiz. Bu haqida tilshunos olim J.Boʻronov shunday yozadi.: “Soʻz birikmasining komponentlari biri ikkinchisiga tobelanishi yoʻli orqali birikadi. Soʻz birikmasining komponentlari oʻrtasidagi hokim tobelik quyidagi yoʻllar bilan ifodalanadi:

Moslashuv (Agreement). Moslashuvga tobe soʻz (Subordinate word) hokim soʻzga (Head word) mos formada kelishi kerak.

Ingliz tilida aniqlovchi aniqlanmish bilan moslanmaydi, koʻrsatish olmoshi bilan ifodalangan aniqlovchi bu qoidadan mustasnodir. Masalan”

This book	that book
These books	those books

Ega bilan kesimning moslashuvi soʻz birikmasida emas, gapda oʻrganiladi”¹⁰. Demak, moslashuvusulida hokim soʻz qaysi grammatik formada boʻlsa tobe soʻz ham shu formada boʻladi. Masalan, rus tilida sifat ot bilan moslashuvi uchun otning grammatik formalarini (kelishik, rod, son) qabul qiladi: красивая девушка, любимые книги, интересное представление.

Moslashuv toʻliq va toʻliqsiz boʻladi. Yuqoridagi misollarda hokim va tobe boʻlaklar toʻliq (ham kelishik, ham rod, ham son) moslashgan. Bunday boʻlaklar qisman moslashsa, toʻliqsiz moslashuv yuzaga keladi. Masalan, rus tilida черный кофе birikmasida tobe va hokim boʻlak faqat rod (мужеской род)da moslashgan boʻladi. Chunki кофе soʻzi koʻplik formasini qabul qilmaydi va kelishiklar bilan turlanmaydi: черного кофе, черному кофе, черным кофе, черных кофе kabilar maqsadga muvofiq emas. Bularda sifatlarning kelishik formasi soʻz birikmasining gapdagi sintaktik funksiyasini belgilaydi. Baʼzi adabiyotlarda ega va kesim aloqasi ham moslashuv deb talqin qilinadi. Bu soʻz birikmasi bilan gapni farq qilmaslik, gapni ham soʻz birikmasining bir koʻrinishi deb qarashga olib keladi. Shunday boʻlmasligi uchun ega va kesim aloqasi, yuqorida qayd qilinganidek, sintaktik munosabatning predikativ bogʻlanishi deb qaraladi. Koʻp adabiyotlarda turkey tillarga xos qaratqich va qaralmish aloqasida ham moslashuv munosabati yoʻq. Qiyoslaymiz:

Большое озеро – mening daftarim

Qaratqich va qaralmishda shaxs-son jihatdan moslashuv bor deyiladi. Lekin buning tabiati oʻzgacha: bunda moslashuv kishilik olmoshlari, qaratqich va egalik formalari orqali yuz beradi. Shunda ham sonda moslashish shart emas: mening kitoblarim. Koʻrinadiki, bunda tobe boʻlak hokim boʻlak formasiga kirayotgani yoʻq: -ning qaratqich - (s) egalik qoʻshimchasi. Buning 1-komponenti tobe, 2- hokim ham deb boʻlmaydi. Shuni hisobga olib bu tip bogʻlanishini boshqaruv ham deb boʻlmaydi. Shuni hisobga olib bu tip bogʻlanishini boshqaruv deb ham aytiladi. Lekin boshqaruvda boshqarish bir tomonlama hokim boʻlak tobe boʻlakni boshqaradi: institutga boraman. Qaratqich va qaralmish munosabatida esa boshqarish ikki tomonlama.

¹⁰ Boʻronov J. va boshqalar, Ingliz tili Grammatikasi, Toshkent ”Oʻqituvchi”, 1974-yil. 290-bet.

Sintaktik munosabat turlari haqida taniqli tilshunos olim M.T.Irisqulovning fikrlari yuqorida aytilganlarga mos keladi: "Tillarda so'zlar orasidagi sintaktik munosabatni teng bog'lanish, ergash bog'lanish, predikativ bog'lanishga ajratiladi"¹¹.

Teng bog'lanish deganda ikki yoki undan ortiq bir-biriga teng bo'lgan so'zlar orasidagi munosabatni tushuniladi. Masalan: kun vat un, men vas en. Ergash bog'lanish deganda yetakchi va tobe so'zlar orasidagi bog'lanish tushuniladi: pishiq ish, oltin vodiy kabilar. Bu birikmalarda ish va vodiy so'zlari yetakchi, pishiq va oltin - tobe so'zlardir. Ergash bog'lanish o'z navbatida moslashuv, boshqaruv, bitishuv kabi turlarga ajratiladi. Moslashuv ergash bog'lanishning bir turi bo'lib, tobe so'z kelishida va jinsda moslashadi. Moslanish hamma tillarda ham bir xil ko'rinishga ega emas. Agar rus tilida moslashuv qayd qilingan hamma shakllarda amalgam oshirilsa, ingliz tilida qismlar faqat son nuqtai nazaridan moslashadi. Masalan qiyoslab ko'ramiz: моя книга, моей книге, моим книгам, this book, these books, that book, those books. Ko'rinib turibdiki bu ikki tildan faqat rus tilida har tomonlama moslashuv amalgam oshadi. Sintaktik munosabatning boshqaruv usulida tobe bo'lak hokim bo'lak talab qilgan formani oladi. Misol keltiramiz:

O'zbek tilida: kishi mehnatda chiniqadi,

Rus tilida: вспомнит о друге.

Nemis tilida: einen Article lessen (maqola o'qimoq)

Boshqaruv kelishikli va ko'makchi(predlog)li bo'ladi. Qiyoslaymiz :

Zulfiyaga oldim – Zulfiya uchun oldim.

Hozirgi ingliz tilidagi so'z birikmalarida boshqaruvning roli unchalik katta emas. Professor B.A.Ilishning ko'rsatishicha, faqat obyekt kelishik (objective case) kelishigida kelgan kelishik olmoshlar va Who? so'roq olmoshi hokim so'z fe'l talabiga ko'ra o'z formalarini o'zgartirishlari mumkin : give me, him, her, us, them, whom.

Boshqaruv aloqasida tobe so'zni har xil turkumdagi so'z boshqarishi mumkin. Masalan : uyga bormoq (fe'lli boshqaruv), mendan katta (sifatli boshqaruv), tovushdan tez (ravishli boshqaruv), o'qishda birinchi (son boshqaruv), aytgan bola (otli boshqaruv).

Boshqaruv uni amalga oshirayotgan vositaga bog'liq ravishda kelishikli boshqaruv, ko'makchili boshqaruv, ravishdoshli boshqaruv, sifatdoshli boshqaruv kabilarga bo'linadi.

Bitishuv (Adjoining). Bunda hokim va tobe bo'laklar o'zaro so'z tartibi hamda ohang yordamida munosabatga kirishadi. Misollar :

o'zbek tilida : kichkina bola yiqilib tushdi.

Rus tilida : очень жарко, иду быстро

¹¹ Irisqulov M.T., "Tilshunoslikka kirish", Toshkent "Yangi asr avlodi", 141-bet.

Bunday bog'lanishda birikkan so'zlardan birining grammatik ikkilanishi 2-ga bog'liq bo'lmaydi. Ularning o'zaro aloqasi yuqorida qayd qilinganidek, so'z tartibi yoki intonatsiya orqali ifodalanadi. Ingliz tilida bunday bog'lanish keng tarqalgan. Masalan, a good boy, his book, to read well, ten books, many pens, to read slowly.

Bitishuv dunyodagi ko'p tillarga xos. Bu ayniqsa qo'shimchasiz tillarda masalan, vietnam tilida gapda so'zlarni sintaktik aloqaga kiritishning asosiy usulidir. Bitishuv affiksli tillarda ham mavjud. Lekin bularda 2 hodisa: o'zgarmaydigan so'zlarning bitishuvi va o'zgaradigan so'zlarning formasining bitishuvi farq qilinadi. Birinchi tip bo'yicha rus tilida ravish, ravishdosh, infinitiv, komperativ (qiyosiy daraja formasi)lar bitishadi. Ingliz tilida sifatlar kelishik, rod va sonda turlanmaydi. Ular otlar bilan shu tipda bitishadi: the large room. Turkiy tillarda jumladan o'zbek tilida sifat, son, sifatdosh, olmoshlarning ayrim ko'rinishlari ot bilan ravishning ayrim ko'rinishlari va ravishdosh fe'l bilan bitishadi: katta bino, bu bino, o'qigan bola, tez o'qimoq, kulib chaqirmoq. Ikkinchi tipda so'z formalari hokim bo'lak bilan, agar ular boshqarilmagan, moslashilmagan bo'lsa, bitishuv aloqasiga kirishiladi. Bu ko'proq rus tiliga xos: Товариш Петров, капитан Иванов, Профессор Смирнов.

Ergash bog'lanishning yana inkorporatsiya ya'ni, so'z sostaviga qo'shilish usuli ham mavjud. Bu Osiyo va Shimoliy Amerika hindularining tillariga xos. Bunda negizlar affikslar bilan kelishib, so'z, so'z birikmasi va gaplarni shakllantiradi. Inkorporatsiyada so'z negizlari turli affikslar bilan kelib, butun morfologik birlikni tashkil qiladi. Bu inkorporatsiya kompleks deb yuritiladi. Ergash bog'lanishning u yoki bu formasining ishlashi ma'lum darajada tillarning grammatik qurilishiga bog'liq. Masalan, moslashuv aksariyat sintetik (fleksiv) tillarda (rus tili, lotin tili) xosdir. Analitik tillarda ya'ni ingliz tilida moslashuvning qo'llanish doirasi chegaralangan. Masalan, ingliz tilida sifat ot bilan moslashmaydi: stone wall, red pencil. Bunday holatlarda, ayniqsa ingliz tili uchun forma o'zgarishi xarakterli bo'lmaganligi uchun bitishuv kengroq qo'llaniladi.: a tall man, the white house.

O'zbek tilida ham rus tilidagi moslashuv munosabati asosan bitishuv orqali ifoda qilinadi. Qiyoslab ko'ramiz: Большой дом – katta uy, bu kitob -- это книга, пятый курс – beshinchi kurs.

Yuqorida aytib o'tilganidek, bitishuv usuli bilan birikkan so'zlarning o'zaro aloqa asosan tartib va ohang bilan belgilanadi. Bitishuv aloqasida morfologik ko'rsatkich bo'lmasada, tartib muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bunda tobe so'z ushbu mavqega kelish uchun shakliy jihatdan o'zgarmaydi.. Zaro tobe so'z a'zo sifatida namoyon bo'layotgan so'z ma'no va vazifa jihatidan bunga moslashgan bo'ladi. Misol keltiramiz: red flower, white paper. Ba'zan ot turkumidagi so'zlar ham hech qanday vositasiz tobe vazifaga kela oladi: olti soat, tosh yo'l kabi. Bunda ular mohiyatan tobe, a'zolik doimiy belgisi bo'lgan sifat, son, ravish turkumiga

yaqinlashadi. Bu hodisa nutqiy bo'lib, oltin, tosh leksemasining lisoniy mohiyati bilan belgilanmagan. Quyida bitishuv yo'li bilan bog'langan so'zlarga misollar:

- 1) ravish + fe'l: o'z-o'zidan gapirmoq
- 2) sifat + fe'l: yaxshi so'zlamoq
- 3) son + ot: o'nta qalam, sakkiz o'quvchi
- 4) ot + ot: kumush qoshiq, ohang yo'q
- 5) olmosh + ot: hamma odam, qanday odam

Ayrim manbalarda tobe so'z vazifasida ravishdosh (shoshilib gapirdi), sifatdosh (o'qigan bola) yuzaga chiqqan birikuv kam bitishuvli birikma sifatida qaraladi. Vaholanki bu yerda ravishdoshko'rsatkichi [-ib] fe'lni fe'lga (shoshilib gapirdi), sifatdosh shakli [-gan] fe'lni otga (o'qigan bola) bog'lash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, bularning morfologiyada lug'aviy sintaktik hakl sifatida qarashligi ham ular hosil qirikuvnibitishuvli emas, balki boshqaruvli birikuv sifatida baholashni taqoza etadi.

Bitishuvda a'zolarning hokim tobelik holati asosan tartib va joylashuvomili asosida belgilanadi: (tobe a'zo, hokim a'zo) ya'ni, tobe so'z oldin, hokim so'z keyin keladi hamda a'zolarorasi boshqa so'zni kiritib bo'lmaydi. Masalan, kumush qoshiq birikmasini kumush o'nta qoshiq deb, o'zgartirib bo'lmaydi. Ba'zan bitishuvda ham tartib 2-o'ringa tushib qolgandek tuyuladi. Masalan: majlis bo'ladi – majlis kechqurun bo'ladi. Lekin bunda majlis so'zife'lga bitishuvasosida emas, bosh kelishikda bog'lanayotganligini esdan chiqarmaslik kerak.

Demak, bitishuv aloqasida tartib va ohang muhim rol o'ynaydi. Bunda tobelik tartib vajoylashuvdan so'zning grammatik xususiyati va ma'nosidan anglashilishi ayon bo'lib turadi. Kelishik affiksi o'z ma'nolarini yo'qotgan: tezda ketmoq, o'z-o'zidan raqsga tushib ketmoq, birdan gapirmoq birikuvini ham bitishuv aloqasi sifatida qaramoq lozim. Chunki kelishik qo'shimchasi fe'l so'z birikmasida o'z qismidan ajralib so'z tarkibida "qotibqolgan". Bular-kelishik qo'shimchasini olgan holda ravishga ko'chgan so'z.

II BOB. "Sifat+ot" birikmasining gap strukturasi qo'llanishi.

2.1 So'z birikmasining turlari.

Gap nutqning eng kichik, minimal bo'lagidir. So'z, so'z birikmalari, grammatik, so'z tartibi va intonatsiya gap strukturasi ajralmas qismidir.

Nitq protsessida so'zlar shu tilga xos bo'lgan grammatik xususiyatlar asosida bir-biri bilan bog'lanadi. So'z birikmasi ikki yoki undan ortiq mustaqil ma'no ifodalovchi so'zlardan tuzilgan, ham grammatik, ham semantik butunlikka ega bo'lgan birlikdir.

Mustaqil so'z birkuvi ikki ko'rinishda bo'ladi:

- 1) barqaror birikuv (turg'un birikma);
- 2) nutqiy birikuv (erkin birikma).

Mustaqil so'zning barqaror birikuvi nutq uchun avvaldan tayyor qilib qo'yilgan bo'ladi: sadarayhon, uchwurchak, sotib oldi, Qarshi davlat universiteti (qo'shma so'z), kalavasini uchini yo'qotdi (ibora), yetti o'lchab bir kes (maqol). Bu birikuvning har birida kamida ikkitadan mustaqil so'z bo'lib, ular o'zgaras, buzilmas qilib bog'langan. Sanalgan so'z sintaktik emas, balki lug'aviy birlik bo'lib, tildan tayyor holda olamiz.

Mustaqil so'zning nutqiy birikuvi nutq jarayonida yuz berib, shu jarayon paytidagina yashaydi, vaqtinchalik hodisa ekanligi bilan ajralib turadi: olma va anor, kitobni o'qidi, Otam – o'qituvchi, mening uyim kabi. Nutqiy birikuv erkin bog'lanish deyiladi.

Turg'un birikuv xalq tomonidan, erkin birikuv esa bir kishi tomonidan yaratiladi.

Mustaqil so'zning erkin bog'lanishi ikki xil bo'ladi:

- 1) teng bog'lanish;
- 2) tobe bog'lanish.

Mustaqil so'zning teng bog'lovchi (bog'lovchi vazifasidagi so'z) yoki sanash ohangi yordamida teng bog'lanishi natijasida so'z qo'shilmasi vujudga keladi: olma va anoq, qalam bilan ruchka yoki o'qidi, yozdi kabi. Teng bog'lanishda bir so'z boshqasiga tobe bo'la olmaydi: erkak va ayol; erkak, ayol.

Teng bog'lanish so'z qo'shilmasi hamda bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibida uchraydi.

Sintaksis tobe bog'lanishga asosiy e'tibor qaratadi.

Tobe bog'lanish natijasida so'z birikmasi (qalamda yozdi, qishloqdan keldi) va gap (Salim – muallim, Til yaxshi bo'ldi) hosil bo'ladi.

Birdan ortiq mustaqil so'zning ma'no va grammatik jihatdan tobe bog'lanish so'z birikmasi deyiladi: maktabga borish, daftarning varag'i kabi. So'z birikmasida bosh va ergash so'z bo'ladi. Bunda ma'nosi izohlanayotgan so'z bosh (holim) so'z, uning ma'nosini ravshanlashtirib kelayotgan, izohlayotgan, to'ldirayotgan so'z ergash (tobe) so'z hisoblanadi.

So'roq hamma vaqt bosh so'zga qarab beriladi, so'roqqa javob bo'lgan so'z ergash(tobe) so'z hisoblanadi: Shirin olam (qanday olma?).

Ega va kesim bog'lanishi so'z birikmasi deyiladi: Salim keldi. Lola o'qidi.

Gapdagi bir so'z faqat bir so'zga tobe bo'ladi. Lekin bir so'z ko'plab so'zlarga hokim bo'lishi mumkin.

So'z birikmasi strukturasi bir so'z hokim (head), qolgani tobe (subordinate) bo'ladi. Odatda sifat bilan ot birikkanda sifat tobe, ot hokim; ravish bilan fe'l birikkanda fe'l hokim, ravish tobe bo'ladi:

A powerful man, a grey suit, Red Square, curly hair, enormous eyes, play well; said smiling, beamid with pleasure.

Hokim so'z fe'l bilan ifodalangan bo'lsa, fe'lli so'z birikma, ot bilan ifodalangan bo'lsa otli so'z birikma, olmosh bilan ifodalangan bo'lsa olmoshli so'z birikma, ravish bilan ifodalangan bo'lsa ravishli so'z birikma, son bilan ifodalangan bo'lsa sonli so'z birikma deb yuritiladi.

Hozirgi zamon ingliz tilida ot+ot ko'rinishidagiso'z birikmasi ko'p uchraydi. Ot+ot so'z birikmasi ham o'z navbatida bir necha ko'rinishga ega:

- 1) bosh kelishikdagi ot+ot
tone wall, uncle Tom
- 2) qaratqich kelishikdagi ot+ot
Rahim's book, Tom's sister

Ot+ot so'z birikmasi ko'p hollarda predlog bilan ham keladi:

Ot + of + ot

A drop of rain, the edge of the shelf.

Ot + with + ot

Aniqlovchining otdan oldin yoki keyin kelishiga ko'ra so'z birikmasi bir necha turga bo'linadi. Bunday holat variantlashish deyilib, u so'z birikmasining ichidan kengayishi natijasida sodir bo'ladi.

So'z birikmalarining ko'p uchraydigan turiga sifat+ot birikmasi ham ta'alluqlidir: Big Big, white hair, an old man.

Mazkur so'z birikmasining sifat+predlog+ot turi ham mavjud: afraid of work.

Bu turdagi so'z birikmasida ikkita sifat ketma-ket kelishi mumkin. sifat+sifat+ot so'z birikmasi ham ko'p qo'llanadi. Masalan: new high buildings.

So'z birikmasining boshqa turlari ham mavjud:

- 1) fe'l+ot wrote a letter, is smoking acigar, valued rest

Buyruq maylidagi fe'l+ot strukturasidagi birikmalar (masalan, wait a minute) buyruq gapga teng bo'ladi.

- 2) fe'l+ravish ran fast, spoke louder.
- 3) son+ot fifteen Republics, twenty days.
- 4) ravish+sifat very happy, midely.
- 5) ravish+ravish wery well, too young.
- 6) fe'l+predlog+ot to go with (one's) friend.
- 7) sifat+fe'l easy to write, hard to work.
- 8) sifat+gerundiy worth seeings
- 9) sifat + predlog+gerundiy famouse of painting
- 10) sifat+predlog+sifat far from important

So'z birikmasining yasalishida mustaqil so'zlar qancha ko'p ishtirok etsa, uning turlari ham shuncha ko'p bo'ladi.

2.2 Sifat va uning boshqa so'zlar bilan birikma hosil qilishi

Predmetning belgi yoki xususiyatini bildiruvchi so'zlar sifat deyiladi. Sifat asosan otni aniqlab kelgani uchun uni otning aniqlovchilari turkmiga kiruvchi so'zlarga qo'shiladi. Sifat ifodalagan belgi yoki xususiyat har xil bo'lishi mumkin. Masalan: red-qizil, sweet-shirin, big-katta, clever-aqlli, greedy-ochko'z, nokas, interesting-qiziq va boshqalar.

Yuqoridagi sifatning hammasi predmetning belgi yoki xususiyatini bildirsada, ular bir-biridan farq qiladi.

Masalan: ularning ayrimlari predmetning rangi yoki tusini anglatsa, ayrimlari predmetlarni nimadan qilinganligini ko'rsatadi.

Shu o'rinda mavzu bilan bog'liq holda hozirgi ingliz tilidagi sifat so'z turkumi haqida haqida taniqli tilshunos olimlarning nazariy fikrlarini o'rganib chiqishni lozim deb topdik. Jumladan, taniqli tilshunos olim professor B.A. Ilish sifat xususida quyidagilarni bildiradi:

Sifatning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) Ma'no jihatdan sifat belgini bildiradi
- 2) Shakl jihatdan hozirgi ingliz tilida sifat o'zgarimas. Ba'zan sifatlar sifat darajalarini hosil qiladi. Masalan, long—loner—lonest
- 3) Gapdagi funksiyasi (vazifasi) jihatidan
 - a) sifat gapda o'zidan oldin va ko'pincha keyinkeladigan otlar bilan birikib keladi. Masalan, a large room, times immemorial. Sifatlar shuningdek o'zidan oldin keladigan ravishlar bilan ham birlashib keladi. Masalan, very large, very interesting. Ular predlog + ot frazasidan oldin kelishi

mumkin. Masalan, free from dan. Baʼzida sifatlar oʻzidan oldin keladigan feʼllar bilan birikib keladi. Masalan, married young.

b) gapda sifat asosan aniqlovchi yoki predikativ vazifasini bajaradi. U yana toʻldiruvchili predikativ (Objective predicative

ham boʻlib kelishi mumkin. Masalan,

He painted the door green.

Morfologik nuqtai nazardan olib qaraganda ingliz tilidagi sifat xususida koʻp gapirishning hojati yoʻq. Hammaga yaxshi maʼlumki, ingliz tilida sifat na koʻplik, na egalik, na rod kategoriyasiga ega. Shunga qaramasdan baʼzi sifatlar darajaga ega boʻlib, bu morfologik sistemaning bir qismidir. Shunday qilib ingliz tilidagi sifatlar shakl tomondan nihoyatda koʻp qoʻshimchalarga ega boʻlgan tillar boʻlib hisoblanadi, rus, lotin, nemis tillaridan keskin farq qiladi. Chunki bu tillarda sifatlar morfologik jihatdan ancha murakkab tizimga ega. Shuningdek ingliz tilidagi sifat soʻz turkumidan ham katta farq qiladi.

Hozirgi ingliz tilidagi qaysi belgisiga qarab farqlash mumkin, degan savol tugʻiladi. Koʻp hollarda ularni farqlash faqat semantik va sintaktik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Lekin baʼzi hollarda maʼlum sifatlar uchun soʻz yasovchi qoʻshimchalarning roli ham muhim. Bunday qoʻshimchalar jumlasiga -less (useless), -like (ghostlike) suffiksi va shu kabi bir necha qoʻshimchalarni kiritish mumkin. Biroq sifat yasovchi suffikslar yordamida yasalgan soʻzlarni i har doim ham sifat soʻz turkumiga mansub boʻladi deyish toʻgʻri emas. Chunki aynan shu suffiks yordamida yasalgan soʻz boshqa soʻz turkumiga iod boʻlishi ham mumkin. Masalan, -ful suffiksi faqat sifat soʻz turkumiga xos qoʻshimcha boʻlib tuyuladi, chunki uning antonimi -less. Haqiqatdan ham -ful suffiksi juda koʻp sifatlar tarkibida uchraydi. Masalan: beautiful, useful, purposeful va hokozalar. Ammo shular bilan bir qatorda spoonful, mouthful, handful kabi soʻzlar uchraydiki, ular ot hisoblanadi.

Sifatlar bilan aloqador yagona morfologik muammo, bu sifat sifat darajalari muammosidir. Bu xususda soʻz yuritilganda ingliz tilida sifat necha darajaga ega degan savol birinchi boʻlib oʻrtaga tashlanadi. Agar misol tariqasida ingliz tilidagi large, larger, largest sifatining uchala shaklini oladigan boʻlsak, ularning uchalarini ham sifat darajasi deb ayta olamizmi? Bu holda biz ularni oddiy, qiyosiy va orttirma daraja degan termin bilan ajratishimiz kerak. Yoki biz faqat keyingi ikki termini, yaʼni qiyosiy va orttirmani sifat darajasi deb aytsa (qabul qilsak) toʻgʻri boʻladimi, chunki oddiy daraja hech qanday qiyoslashni ifodalamaydi. Shu tufayli ham u umuman sifat darajasi emas, deb hisoblasak boʻladimi? Aynan shu muammo. Yaʼni sifat darajasini ikkita deb hisoblash kerakmi yoki uchta deb qarash grammatik taʼlimotda har ikkalasi ham oʻz tarafdorlariga ega, degan fikrni ilgari suradi B.A. Ilish.

”Barchaga yaxshi ma’lumki, ---deya fikrini davom ettiradi prof.B.A.Ilish, ---ingliz tilidagi hamma sifatlar darajaga ega emas. Bu ikki faktorga bog’liq bo’lishi mumkin. Bulardan biri semantik (ma’no tomondan) faktor. Qaysiki sifat darajalari biror bir aniq xususiyatning turli darajalari o’rtasidagi farqni ifodalab keladi. Masalan middle sifati sifat darajalariga ega emas. Shuningdek blind, deaf, dead, kabi sifatlarning ham darajalari yo’q. Lekin ba’zida badiiy adabiyotda qoidadan mustasno holda bunday sifatlarning qiyosiy va orttirma darajada ishlatilganligini uchratish mumkin. Masalan:

You cannot be deader than dead

Todt was the deadeast of them all. (E.Hemingway)

Sifat darajalari bilan bog’liq ikkinchi muammo ko’p bo’g’inli sifatlarga oiddir. More difficult, (the) most difficult yoki more beautiful, (the) most beautiful frazalaridagi more, most so’zlari difficult yoki beautiful sifatining analitik qiyosiy darajasimi? Bu holda more so’zi analitik shaklni yasashga xizmat qiladigan yordamchi so’z hisoblanadi va fraza (jumla)ning o’zi morfologiya sohasiga tegishli bo’ladi. Yoki more difficult erkin jumla (free phrase) bo’lib very difficult yoki somewhat difficult jumllaridan farq qilmaydi deyish to’g’rimi? Bu holda difficult sifati umuman sifat darajalariga ega bo’lmaydi, chunki bu sifat –er, -est suffikslari yordamida sifat darajalarini hosil qila olmaydi va shu sababli butun jumla sintaktik birikma hisoblanadi.

Tilshunos olim mulohazalarini more, most yordamida yasaladigan bunday birikmalarni analitik shakl deb atash to’g’ri degan xulosaga keldi. Xuddi shunga o’xshash fikrni boshqa bir tilshunos olim V.L.Kaushanskaya¹² ham oldinga suradi. U sifat darajalarini ikkita deb hisoblaydi., ya’ni qiyosiy va orttirma daraja more, most yordamida sifat darajalarini yasashni esa analitik shakl deb ataydi. –er, -est yordamida sifat darajalarini yasashni esa sintetik usul deb hisoblaydi.

E.M.Gordon¹³ esa ingliz tilida sifat darajalari uchta deb, ko’pchilik Grammatik darsliklarida bayon qilingan fikrni ma’qullaydi.

O’zbek tilshunos olimi J.Bo’ronov¹⁴ sifat darajalari ikkita degan fikrga umuman qarshi chiqadi: “Ayrim grammatika kitoblarida bu forma sifat darajasi formasi sifatida berilmasligi xatodir. Chuki sifatning oddiy daraja shakli boshqa formalar uchun boshlang’ich forma hisoblanadi, ya’ni oddiy daraja formalari haqida so’z yuritish mumkin emas. Umuman, hamma kategoriyalarda boshlang’ich forma nol ko’rsatkichli bo’lganidek, oddiy daraja formasi ham nol ko’rsatkichli, ya’ni suffikssiz bo’ladi.Ikkinchidan oddiy daraja formalari ikki va undan ortiq predmentning belgisi yoki xarakteriga ko’ra bir-biri bilan qiyoshlashda xizmat qilishi mumkin”.

¹² V.L.Kaushanskaya ..., “A Grammar og English language”, L., 1973. 49-b.

¹³ E.M.Gordon

¹⁴ J.Bo’ronov “Ingliz va o’zbek tillari qiyosiy grammatikasi”, T., ”O’qituvchi”, 1975. 49-b.

Biz ham hozirgi ingliz tilida sifat darajalari uchta degan tilshunos olimlarning olimlarning fikrlariga qo'shilamiz.

Sifatning gapdagi funksiya (vazifa)sini grammatik tahlil qilishdan oldin aynan shu mavzu bilan bog'liq bo'lganligi tufayli uning boshqa so'zlar bilan birikishiga to'xtalib o'tamiz.

"Sifatning boshqa so'zlar bilan birikishi deganda uning o'zidan keyin kelgan ot, o'zidan oldin kelgan ravish bilan birikishi va so'z oxirida qo'shma kesimning predikativ qismi bo'lib kelishi tushuniladi, – deb yozadi professor J.Bo'ronov.

Tilshunos olim I.V Reznik¹⁵ grammatikaga oid qo'llanmasida bu masalaga quyidagicha yondashadi:

Sifat gapda yakka yoki jumla (phrase)ning bir qismi sifatida qo'llanilishi mumkin.

The book is interesting.

Bu gapda sifat yakka holda ishlatilgan

This is an interesting book.

Bu gapda sifat otli birikma (noun phrase)ning bir qismi bo'lib kelgan.

There was nothing interesting there.

Bu gapda sifat pronominal, ya'ni olmoshli birikma (pronominal phrase)ning bir qismi bo'lib kelgan.

The book is interesting to read.

Bu gapda sifat sifatli birikma (adjective phrase)ning bir qismi bo'lib kelgan.

Bulardan tashqari faqat rasmiy yozma nutqda sifat bog'lovchi bilan birikib, sifatli birikma (adjective phrase)ni hosil qiladi.Masalan:

When (if) unhappy, he turned to her for consolation.

Yuqorida aytib o'tilganlarga o'xshash fikrni professor L.S.Barxudarov¹⁶ ham oldinga suradi. Farqli tomoni shundaki, u yoki sifatli birikma termini o'rniga atributiv birikma (aniqllovchili birikma) terminini qo'llaydi.

Sifat gapda odatda ot bilan birikib keladi va atributiv birikma hosil qiladi. Masalan: the green tree. Sifat shuningdek fe'l yoki bog'lovchi vazifasida keluvchi mustaqil fe'l bilan birikib keladi.Bulardan tashqari sifat ravish, predlogli aborotlar va infinitive bilan birikib kelishi mumkin.Yordanchi so'z turkumlarida yuklama bilan birikib keladi.Agar sifat o'zi aniqlab kelayotgan ot bilan aloqani yo'qotsa, u o'zi substantivelashadi, ya'ni o'zi otga aylanadi.Masalan: The young people --- the young

Professor J.Bo'ronov¹⁷ Bu mavzuga quyidagicha yondashadi: sifatlarning sintaktik xususiyatlaridan biri ularning turli so'z turkumlari bilan birikishi va ularni aniqlab kelishidir.

¹⁵ I.V.Reznik "Grammatika angliyskogo yazika", M., 2000, part I. str.24

¹⁶ L.S.Barxudarov, D.A.Shtelling "Grammatika angliyskogo yazika", M., 1963. str.113.

- 1) Sifatlar otlar bilan birikib, ularni yo prepozitiv, yo postpozitiv tarzda aniqlab keladi: clever boy, interesting books, fresh air, secretary general;
- 2) Sifatlar otlar bilan predloglar vositasida birikishi mumkin: free of tax, true to life, red with anger;
- 3) Sifat ba'zi ravishlar bilan birikib kelganda ravishlar ularning ma'nosini kuchaytiradi: very nice, awfully sorry.

Ma'noni kuchaytirish uchun ravishlar ikki va undan ortiqroq qaytarilib kelishi ham mumkin. Masalan:

O, that this too, too solid flesh would melt.

Thaw, and resolve itself into a dew.

- 4) Sifatlar fe'lning turli shakllari bilan birikib kelishi mumkin: true hearted, to look blue, to see red.

Tilshunos olimlarning yuqorida ko'rib chiqilgan fikr-mulohazalaridan kelib chiqib, sifat gap yarusida asosan ot, ravish, fe'l va predloglar bilan, ayrim hollarda esa bog'lovchi va yuklama bilan birikib keladi deb xulosa qilish mumki.

¹⁷ J.Bo'ronov "Ingliz va o'zbek qiyosiy grammatikalsi", "O'qituvchi", T. 1975, 59-b.

2.3 “Sifat + ot” birikmasining sintaktik-semantik tahlili

Biz bu tahlilni sifatning gapdagi sintaktik funksiyalariga asoslangan holda amalga oshiramiz. Yuqorida aytib oʻtilganidek sifat asosan gapda ikki xil vazifani bajaradi.

1) Sifat gapda aniqlovchi boʻlib keladi. U oʻzi aniqlab kelayotgan otdan oldin yoki keyin kelishi mumkin. Buni quyidagi misollar tasdiqlaydi:

Do you see the small green boat,

Such has an odd shape? (Ch.Dickens).

Siz shunday gʻalati shaklga ega boʻlgan kichkina, yashil qayiqni koʻryapsizmi?

Bu gapda uchta sifat: small, green, odd ishlatilgan. Small va green sifatlari boat soʻzi bilan birikib atributiv (aniqlovchili) birikma hosil qilgan, odd sifati esa shape soʻzi bilan birikma hosil qilgan. Uchala sifat ham otdan oldin kelgani sababli prepozitiv aniqlovchi hisoblanadi. Uchalasi ham asliy sifa(qualitative adjective) boʻlib, small - hajmini, green – rangini, odd esa shaklini ifodalaydigan sifat hisoblanadi. Bi sifatlar tuzilishiga koʻra sodda sifatlardir. Masalan:

The lights of the farm blazed out in the windy darkness (P.Abrahams).

Fermaning chroqlari shamolli qorongʻulikda charaqlab turardi.

Bu gapda windy darkness otili yoki aniqlovchili birikma boʻlib, nisbiy sifat, prepozitiv aniqlovchi qanday soʻrogʻiga javob boʻladi. Masalan:

I said it with the playful sarcasm that had become our favourite way of speaking.

Men buni oʻynoqi kinoya bilan aytdim qaysiki bu bizning sevimli gapirish usulimizga aylangan edi.

Bu gapda playful ba favourite sifatlari prepozitiv aniqlovchi vazifasida kelgan. Ikkalasi ham tuzilishiga koʻra suffikslar yordamida yasalgan yasama sifatlari hisoblanadi. Bu sifatlar semantic jihatdan soʻzlovchining aniqlanib kelayotgan otga nisbatan subyektiv munosabatini bildiradi, yaʼni nisbiy sifatlar hisoblanadi. Masalan:

Clever and tactful, George listened to my story with deep concern (Ch.Dickens).

Aqlli va andishali Jorj mening hikoyamni chuqur gʻamxoʻrlik bilan tingladi.

Bu gapda clever va tactful sifatlari otdan oldin keluvchi prepozitiv aniqlovchi. Baʼzi tilshunos olimlar bunday aniqlovchini loose attribute yaʼni otga bogʻlanmagan, erkin aniqlovchi

deb ataydi¹⁸ . tuzilishiga ko'ra clever – soda sifat, ma'nosiga ko'ra – asliy sifat, tactful – tuzilishiga ko'ra yasama sifat, ma'nosiga ko'ra nisbiy sifat.

Erkin aniqlovchi otdan keyin postpozitiv holatda kelishi ham mumkin. Masalan:

My father happy and tired, kissed me good-night.

Baxtli va horg'in holda otam meni o'pib, menga xayrli tun tiladi.

Bu gapda happy – tuzilishiga ko'ra sodda sifat, ma'nosiga ko'ra nisbiy sifat, tired – tuzilishiga ko'ra yasama, ma'nosiga ko'ra asliy sifatdir.

Now and again she cast a glance, at once curious and anxiose, at her husband (K.Mansfield)

. Ahyon-ahyonda u eriga sinchkov va tashvishli nazar tashlardi..

Bu gapda ham curious and anxiose sifatleri o'zi aniqlab kelayotgan otdan keyin kelgan post pozitiv yoki erkin aniqlovchi hisoblanadi. Tuzilishi jihatdan ikkalasi ham -ous suffiksi yordamida yasalgan yasama sifatlar, semantik, ya'ni ma'no jihatdan asliy sifatdir.

Shu o'rinda muhim bir jihatni ta'kidlab o'tishimiz zarur. O'zbek tilida aniqlovchi har doim otdan oldin keladi, ingliz tilida esa yuqorida tahlil qilingan misollar orqali ko'rdikki, aniqlovchi otdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin. Inglizcha gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilganda biz bu jihatni e'tiborga olishimiz zarur bo'ladi. Aks holda tarjima tushunarsiz chiqadi.

2) Sifatlar gapda predikativ (qo'shma kesimning ot qismi) vazifasini bajaradi. Masalan:

Michael was reserved as usual (K.Mansfield).

Maykl har doimgidek bosiq edi.

Bu gapda reserved sifati to be fe'li bilan birikma hosil qilib, uning ot qismi bo'lib hisoblanadi. Ba'zi tilshunos olimlar yuqoridagiga o'xshagan to be + sifat birikmasini qo'shma kesimning ot qismi, ya'ni nominativ predikative emas, balki adjectival predicative --- qo'shma kesimning sifat qismi deb hisoblaydilar. Reserved – tuzilishi jihatdan yasama, ma'no jihatdan asliy sifat.

The night was dark and sharp (J. Joyce)

Tun qorong'I va izg'irin edi.

Bu gapda ham dark va sharp sifatlari to be fe'lidan keyin kelib, predikativ vazifasini bajaryapti.

Dark va sharp tuzilishi jihatdan sodda,

ma'no jihatidan asliy sifat.

Ma'lumki sifatlar predikativ vazifasida kelganda faqat to be fe'li bilan emas, balki boshqa fe'l bilan ham ishlatiladi. Buni quyidagi misollarda ko'rib o'tamiz:

He looked mature, sober and calm. (Ch.Dickens)

U balog'atga yetgan, aqli raso va kamgap ko'rinardi.

¹⁸ E.M.Gordon

Bu gapda bir necha sifat to look fe'li bilan birikib, qo'shma kesim hosil qilgan.

Mature, sober, calm tuzilishi jihatdan sodda sifat,

ma'no jihatdan nisbiy sifatdir.

He was aware of what was going on in the office.(Th.Dreiser).

U offisda nima bo'layotganidan xabardor edi.

Bu gapda ham sifat to be fe'li yordamida yasalgan qo'shma kesimning predikativ qismidir.

Tuzilishi jihatidan aware sodda sifat,

ma'no jihatdan asliy sifat.

Yuqorida alohida ta'kidlanganidek, sifat gapda ikkita sintaktik funksiyani bajaradi: aniqlovchi va predikativ. Lekin ba'zi tilshunos olim sifatning predikativlik funksiyasini bir necha turlarga bo'lishadi. Biz quyida shu xususda to'xtalamiz.

1) Sifat murakkab fe'l kesimning bir qismi bo'lib keladi (a prt of a compound verbal predicate). Misollarga murojaat qilamiz:

He stood silent, with his back turned to the window (Th.Dreiser)

U orqasini derazaga o'girib jim turardi.

Bu gapda stood silent fe'li murakkab fe'l kesim, silent bu fe'lning bir qismi.

Tuzilishi jihatsilent – yasama,

Ma'no jihatdan --- nisbiy sifat.

She lay motionless, as if she were asleep.

U uxlab yotgandek qimirlamay yotardi.

Bu gapda L lay motionless – predikativ.

Tuzilish jihatdan – yasama,

Ma'no jihatdan nisbiy sifat.

3) Sifat gapda to'ldiruvchili predikativ (an objective predicative) funksiyasida keladi. Masalan:

I thought him very intelligent (J.Joyce)

Men uni o'ta ziyoli deb o'ylagandim.

Bu gapda thought him very intelligent verb+object+adjective, ya'ni fe'l + to'ldiruvchi + sifat birikmasi yaxlit kesimni hosil qilgan.

She held her coat tight against her body because the wind was very cold. (K.Mansfield).

Shamol o'ta sovuqligi tufayli u paltosiga mahkam o'ranib oldi.

held her coat tight – murakkab fe'l kesim fe'l + to'ldiruvchi + sifat birikmasini hosil qilgan.

The cat licked the saucer dry.

Mushuk idishni qup-quruq qilib yalab qo'ydi.

Bu gapda *licked the saucer dry* – murakkab fe'l kesim.

Yuqoridagi uchta gapning hammasida sifat to'ldiruvchidan keyin ishlatilgan. Shu tufayli to'ldiruvchili predikativ deb ataladi.

4) sifat gapda ega bilan aloqador predikativ (a subjective predicative) bo'lib keladi. Masalan:

Her hair was dyed blonde.

Uning sochi och-sariqqa bo'yalgandi.

The door was closed tight.

Eshik mahkam yopilgandi.

The vegetables were served raw, the way he liked.

Sabzavotlar tabiiy saqlangandi, xuddi u yoqtirgandek.

Bu uchala gapning strukturasi bir xil: ega + passiv sifatdagi fe'l + sifat. Sifat har uchala gapda egani ifodalash uchun xizmat qilgan. Ya'ni,

blonde hair – och – sariq soch,

the tight door - .mahkam yopilgan eshik,

raw vegetables – tabiiy sabzavotlar.

Shuning uchun ham bunday sifatlar eganing bir qismi (subjective predicate) deb yuritiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ko'p sifatlar ham aniqlovchi, ham predikativ vazifasida ishlatilishi mumkin. Lekin ular orasida shundaylari borki, ular faqat predikativ vazifasida keladi. Bular a harfi bilan boshlanuvchi sifatlar. Masalan: afraid, asleep, alone, alert, alive, awake, ashamed kabilar. Shuningdek content, sorry, well, ill va hakovalar ham shular jumlasiga kiradi. A ---- bilan boshlanuvchi sifatlarni ba'zi olimlar so'z turkumiga kiritmaydi va holatni bildiruvchi so'zlar deb hisoblaydi (The words denoting Category of State). Ba'zi sifatlar faqat aniqlovchi vazifasida ishlatiladi. Bular jumlasiga outer, major, minor, only, whole, former, latter va shu kabilar kiradi.

Biz quyida sifatning gap strukturasi bajaradigan funksiyasini ingliz adabiyotidan olingan misollar orqali leksik semantik tahlil qilish orqali o'rganib chiqmoqchimiz.

Grammatikaga oid darsliklar va qo'llanmalarining deyarli ko'pchiligida gap yarusida sifatlar asosan ikkita funksiyada : aniqlovchi va qo'shma kesimning ot qismi, ya'ni predikativ vazifasida kelishi aytib o'tilgan.

Shu xususda bir necha tilshunos olimlarning fikrini keltirib o'tamiz. V.L.Kaushanskaya: "Adjectives have two main syntactical functions. They may be used

as attributes or predicatives¹⁹” . Professor J.Bo’ronov : “Sifat gapda asosan aniqlovchi yoki qo’shma kesimning predikativ qismi bo’lib kelib, prepozitiv yoki postpozitiv aniqlovchi va predikativ vazifasini bajaradi²⁰”.

Biz quyida “Sifat + ot” birikmalarining sintaktik-semantik tahliliga oid badiiy adabiyotlar namunalaridan olinganmisollardan keltirib o’tamiz.

1. Herbert was my intimate companion and friend. (PAP76)

Herbert mening sirdosh hamrohim va do’stim edi.

2. They were not like a handsome men and beautiful women any more. (PAP)

Ular qandaydir ko’proq chiroyli ayollarni va kelishgan erkaklarni xushlamaydilar.

3. Celi was pretty and a good companion. (MAB45)

Seliya juda chiroyli hamda ajoyib hamroh edi.

4. One day in particular he exhibited with common advantage. (HEH117)

Bir kuni u o’ziga xos holatda butun ustunliklarini namoyon etdi.

5. Hawkin was guilty in this affair if a double imprudence (MAB107).

Havkin bu ishda ikki karra surbetlikda ayblangan edi.

6. And he recalled a happy episode at the end of the film (HEH142).

Kinoning oxirida u yaxshi epizodni esladi.

7. But his cases were a different preposition. (HEH158)

Ammo uning holati turli xil muammoli vaziyatda edi.

8. The track travelled over the muddy road until it arrive to there (MAB165).

Og’ir yuk mashinasi u yerga yetib borgunicha loyli yo’l orqali kelardi.

9. He was a burly man of an exceedingly dark complexion, with an exceedingly large head and a corresponding large hand. (MAB 111)

U juda xo’mraygan qiyofali, bahaybat qo’lli va katta boshli chayir odami edi.

10. At that moment, the strange man looked at nobody but me. (HEH106).

O’sha damda begona kishi mendan boshqa hech kimga qaramadi

11. My sister was not in a very bad temper when we presented ourselves in the kitchen (HEH185)

Biz oshxonada ekanligimizda mening opam yomon kayfiyatda emas edi.

12. Her handsome dress had trailed upon the ground (HEH166)

Uning chiroyli ko’ylagi yerda sudralib turardi.

13. We walked round the ruined garden twice or thrice more (HEH107)

Biz ikki yoki uch martadan ko’proq vayron bo’lib qolgan bog’ atrofida aylandik.

14. “That’s true” said Estella with a cold careless smile that always chilled me (HEH143).

¹⁹ V.L.Kaushanskaya “A Grammar of the English language”, L., “Prosveshene”, 1973. str.57.

²⁰ J.Bo’ronov “Ingliz va o’zbek tillari qiyosiy grammatikasi”, T., “O’qituvchi”, 1975, 59-b.

-- Bu haqiqat , - dedi Estella meni qo'rqitadigan sovuq jilmayish bilan.

15. There we found, sitting by a fire, a very old man in a jannel coat (HEH65).

Biz u yerda olov yonida o'tirgan jannel paltoli kishiga duch keldik.

16."Ah. Very fine young lady" -- he replied. (CD34)

"Oh, juda ajoyib xonim-da" --javob berdi u.

17. Lady looked at her with superior eyes.(HEH82)

Xonim unga o'tkir ko'zlari bilan qaradi.

18. I wouldn't want a strange man in the house. (HEH47)

Men uydagi begona kishini umaman yoqtirmagandim.

19. He was a round little man with a red face and a whole box with dials and wires.(CD94).

U dumaloq kichkina qizil yuzli odam bo'lib, sumkasi asbob-uskuna va simlar bilan to'la edi.

20.The teacher shown the all lessons in a big screen (HEH158).

O'qituvchi hamma mavzuni katta ekranda ko'rsatdi.

21.It was a very old book (PAP56).

U juda eski kitob edi.

22. He analysed the chemical composition of the blood (HEH180).

U qonning kimyoviy tarkibini tahlil qildi.

23. He wrote a new novel about "Lucky Stars".(CD76)

U "Baxtli yulduzlar" haqida yangi roman yozdi.

24. He used in his famouse novels first "sciene fiction" (CD182)

U birinchi bo'lib o'zining mashhur asarlarida "badiiy uydurma'lardan foydalandi.

25. They had a special building and all the kids went there (CD79)

Ular maxsus binoga ega edilar va barcha bolalar o'sha yerga ketishdi.

26. She wanted to read about those funny schools (HEH168).

U o'sha qiziq maktab haqida berilga ma'lumotni o'qishni xohladi.

27. She was one of the regular techer. (CD45)

U intizomli o'qituvchilardan biri edi.

28. It was hidden in the hook place. (Ch70).

U ovloq joyga yashiringan edi.

29. He criticized the weak sides of human nature.(HEH 65)

U inson tabiatining nozik, ojiz tomonlarini tanqid ostiga oldi.

30. He lived in a private world of his own dream. (CD73)

U o'z xayollarida orzular olamida yashar edi.

31. Then he tried very hard to be a successful teacher with his class. (ACS94)

U katta yutuqlarga erishish uchun o'z guruhi ustida qattiq ishladi.

32. One morning I was reading to them some simple poetry. (ACS63)
 Bir kuni ertalab men ularga oddiy bir she'riyatdan parcha o'qib berayotgan edim.
33. The old Gentlemen was in pretty good shape for a man of seventy-six. (HEH133)
 Keksa janob juda yaxshi ko'rinishdagi yetmish besh yoshli kishi edi.
34. You are a very clever and sensible and interesting woman, --said Napeolon.
 (CD243)
 Siz juda aqlli, samimiy, qiziqtiruvchan ayolsiz, dedi Napoleon.
35. As he could hear nothing but indistinct sounds of one deep rough voice.
 (Ch. 187).
 U qandaydir o'tkir, qo'pol, g'adir-budir tovush eshitilgani uchun hech narsa eshitmadi.
36. Joe's blue eyes turned a little watery (CD77).
37. What was the nameless shadow which again in that one instant had passed (ACS284)
38. ... I thought of the beautiful young Estell, proud and refined, coming towards me ... (CD46)
39. We shut our outdoor on those solems occasions, in order that we might not be interrupted.
 (HEH297)
40. She was even more dreadfully fond of Estella than she had been when I last saw him together.
 (ACS79).
41. He looked about him with the stranger air – an air of the wondering pleasure ... (p.333)
42. And we were silent again, until she spoke. (HEH492)
43. Moving the lamp out that he was substantially dressed. (p.332)
44. "We are friends", said I, rising and bending over her, as she rose from the bench (CD63)
45. "My business?" he repeated, pausing. I will explain my business, by your leave. (HEH332)
46. I read with my watch upon her table, purposing to close my book at eleven o'clock.. (CD88)
47. They awakened a tender emotion in me. (ACS89).
48. Don't tell him Bidy, that I was ungenerouse and unjust. (PAP487)
49. A low murmer from the two replied. (HEH484)
50. She was so quite, and such an orderly, good and pretty way with her. (AS301)
51. As we had benn less attached to one another, I think we must have hated one another regular every morning (CD)

Sifatning struktirasiga ko'ra turlari (Types of Adjectives according to their Structure).

Sifat strukturasiga ko'ra sodda (simple), yasama (desived, derivative) va qo'shma (compound) bo'lishi mumkin.

a) **sodda sifatlar**. Tub morfemalardan iborat bo'lgan sifatlar *sodda sifatlar* deyiladi. Sodda sifatlar o'zak va so'z yasovchi affikslarga bo'linmaydi. Masalan: big – katta, green – yashil, clever – aqlli, warm – issiq, iliq, clean – toza, dry – quruq va boshqalar. Agar sodda sifatlarga forma yasovchi morfemalar qo'shilsa ham ularning strukturasi soddaligicha qoladi:

long- uzun – longer- uzunroq – longest- eng uzun

big- katta – bigger- kattaroq – biggest- eng katta

deep- chuqur – deeper- chuqurroq – deepest- eng chuqur

b) **yasama sifatlar**. Yasama sifatalar tub sifatalarga so'z yasovchi affikslar qo'shilishidan tashkil topadi. Masalan: cream- y – creamy, care- ful – careful, un-mind- ful – unmindful.

Sifat bir vaqtning o'zida bir o'zak va bir necha affikslardan iborat bo'lishi mumkin, ammo o'zak bitta bo'lganligi sababli u yasama yoki derivativligicha qoladi. Umuman, so'z strukturasi so'zdagi o'zakning yoki o'zak morfemaning xarakteriga qarab belgilanadi.

v) **qo'shma sifatlar**(Compound Adjectives).

Bu sifatlar o'z navbatida ikkiga bo'linadi:

a) oddiy qo'shma sifatlar: trouble-free, true-blue, true-bred, sea-born.

b) qo'shma yasama sifatlar: blackguardly, black-hearted.

Yuqoridagi qo'shma sifatlarga turli predlog, bog'lovchi va boshqa vositasida yasalgan so'zlarni ham qo'shish mumkin.

coast-to-coast – qirg'oqdan-qirg'oqqacha (joyni egallagan).

black-and-white television – rangsiz (oddiy) televizor.

Asliy va nisbiy sifatalar (Qualitative and Relative Adjectives).

Sifat anglatgan ma'nosi va grammatik xususiyatiga ko'ra asliy va nisbiy sifatlarga bo'linadi.

1. **Asliy sifatlar** (Qualitative Adjectives).

Asliy sifatlar predmetning belgi, rangi, tusi, katta-kichikligi, jismoniy va ruhiy holati va boshqa xususiyatlarini o'zga predmetlar orqali emas, balki to'g'ridan-to'g'ri ifodalab keladi. Masalan: little – kichkina, big – katta, large – katta, wide – keng, young – yosh, long – uzun, green – yashil, blue – ko'k.

2. **Nisbiy sifatlar** (Relative Adjectives).

Predmetning turli belgilarini, narsa, joy, vaqt va shu kabilarga bo'lgan aloqasini ifodalab keluvchi sifatlar *nisbiy sifatlar* deyiladi. Masalan: eastern – sharqiy, golden – oltin, oltindan qilingan, wooden – yog'och, yog'ochdan qilingan, woolen – jun, jundan to'qilgan, beggarly – kambag'al, qashshoq, bicentenary – ikki yuz yillik, monthly – oylik, bir oyda bir marta chiqadigan, revolutionary – revolyutsion.

Nisbiy sifatlar asosan boshqa soʻz turkumlaridan yasalganligi sababli ham ularning qiyosiy va ortirma daraja formalari yoʻq, yaʼni sifat darajalarini yasovchi suffikslar qoʻshilmaydi.

Sifat darajalari (Degrees of Comparison).

Sifat darajalari maxsus morfemalar yordamida asliy sifatlarning oʻz morfemalarini oʻzgartirishlari yoki sintaktik yoʻl bilan boshqa soʻzlarga birikishlari natijasida aniqlayotgan soʻzlarning belgi yoki xususiyatlariga koʻra bir-biriga teng, ortiq yoki kamroqligini anglatadi.

Ingliz tilidagi sifat darajalari quyidagilardir:

- a) oddiy daraja (Positive degree)
- b) qiyosiy daraja (Comparative degree)
- c) ortirma daraja (Superlative degree)

Nazariy grammatika sifat darajalarining chogʻishtirma absolyut (comparative absolute), chogʻishtirma organik (comparative organic) va boshqa turlarini ham oʻrganadi, ammo ularni normative grammatikalarga kiritilmaslik ham mumkin.

Xulosa.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida “ “Sifat+ot” birikmasining tahlili” mavzusi nazariy va amaliy jihatdan har tomonlama oʻrganib chiqildi va quyidagi xulosalarga kelindi.

Hozirgi zamon ingliz tilida “sifat+ot” birikmasi gap strukturasi eng koʻp qoʻllaniladi.

Soʻz birikmasi modellari gap tuzish modellari kabi, til birligi boʻlib, konkret soʻz birikmasi ham konkret gap kabi nutq birligi hisoblanadi. Soʻz birikmasi nominativ kategoriya boʻlsa, gap kommunikativ kategoriya hisoblanadi.

Hokim boʻlakning qaysi soʻz turkumida ifodalanishiga qarab, soʻz birikmalari 4 turga boʻlinadi: otli soʻz birikmasi, feʼlli soʻz birikmasi, ravishli soʻz birikmasi va sifatli soʻz birikmasi. “Sifat+ot” soʻz birikmasi otli birikma turiga kiradi. chunki “sifat+ot” birikmasi komponentlari oʻrtasida hokim – tobelik munosabatlari mavjud boʻlib, odatda sifat tobe, ot hokim boʻladi. Masalan, cold water, red pencil.

Baʼzi tilshunos olimlar bunday birikmalarni sifatli birikma deb hisoblaydilar va hokim boʻlak vazifasida sifat keladi degan fikrni ilgari surishadi. Masalan, a busy boy, an evening paper.

Hozirgi zamon ingliz tilida sifat+ot soʻz birikmasining sifat+predlog+ot turi ham mavjud. Masalan, afraid of work.

Bunday turdagi soʻz birikmasida ikkita sifat ketma-ket kelishi ham mumkin, yaʼni sifat+sifat+ot soʻz birikmasi ham keng qoʻllaniladi. Masalan, new, high, buildings.

“Sifat+ot” birikmasining komponentlari biri ikkinchisiga tobelanish yoʻli orqali birikadi. Komponentlar oʻrtasidagi sintaktik munosabatlar, yaʼni hokim- tobelik munosabatlari birikuv (Adjoining) yoʻli bilan ifodalanadi. Masalan, a good boy, fine weather, a powerful man, curly hair.

“Sifat+ot” soʻz birikmasida gap tuzilishidagi oʻrni sintatik funksiyasiga koʻra sifat aniqlovchi boʻlib keladi va qanday, qanaqa soʻroqlariga javob boʻladi. Shu xususiyatga koʻra tilshunos olimlar bunday birikmalarni atributiv (aniqlovchili) birikma deb ataladi.

Gap strukturasi sifat oʻzi aniqlab kelayotgan otdan oldin yoki keyin kelishi mumkin. Sifat otdan oldin kelsa, prepozitiv aniqlovchi deyiladi. Baʼzida gapda otdan oldin ikki yoki undan ortiq sifatning kelishi koʻzatiladi.

Sifat oʻzi aniqlab kelayotgan otdan keyin kelsa, post-pozitiv aniqlovchi deb hisoblanadi. Masalan: The officer pale and heavy, sat at the table.

Prepozitiv aniqlovchiga misol He had strong, heavy, limbs, was swarthy with a soft, black, young moustaches.

Soʻz birikmalari tobe boʻlakning sintaktik vazifasiga koʻra toʻldiruvchili, aniqlovchili, holli soʻz birikmalariga boʻlinadi. Shu qoidaga binoan “sifat+ot” soʻz birikmasida sifat tobe boʻlak ekanligi tufayli hokim boʻlak, yaʼni otni aniqlab keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

Ilmiy adabiyotlar

1. I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" "Ma'naviyat", 2011
2. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch", T., 2008
3. Karimov I.A. Bilimli va intellektual barkamol ablodni tayyorlash-mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning eng muhim omili.
4. T., "Xalq so'zi", 2012.
5. Адмони В.Г.. Введение в синтаксис современного немецкого языка. М., 1955.
6. Аванесов Е.Е "Второстепенные члены предложения" М., 1971
7. Бархударов Л.С, Штеллинг Д.А. "Грамматика английского языка" М., 1973, 265-ст."
8. Бархударов Л.С. "Структура простого предложения английского языка" М., 1966
9. Во'ronov J.B "Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi"
10. Во'ronov J. va boshqalar, Ingliz tili Grammatikasi, Toshkent "O'qituvchi", 1974-yil. 288-bet.
11. Бондарко А.В. "Грамматическая категория и контекст" Наука. Л., 1972
12. Бурлакова В.В. "Английские предлоги" М., 1978
13. Gordon E.M., Krylova I.P. "A Grammar of present - day English" М., 1974
14. Ilyish B.A "The structure of Modern English " М., 1959
15. Irisqulov M.T. "Tilshunoslikka kirish", "Yangi asr avlodi" Toshkent, 2009-yil 141-bet
16. Каушанская Б.Л., Ковнер Л.П. "Грамматика английского языка" Л., 1973
17. К.Н.Качалова, Е.Е.Израилович "Практическая грамматика английского языка" М., 1996.
18. Korsakov A. "The use of tenses in English" Lvov unv. Press, 1969.
19. Mengliyav va boshqalar, "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Yangi asr avlodi" Toshkent, 2009-yil 306-bet
20. Плотников Б.А "Морфология английского языка" М., 1980.
21. Петерсон М.Н. Очерк синтаксиса русского языка, М. – Л., 1923. И.П.Распопов. О предмете синтаксиса. Ученые записки Башкирского Гос. Университетета.
22. Sodiqov A. va boshqalar, Toshkent "O'qituvchi", 1981-yil 82-bet.
23. Потебня А.А. "Из записок по русской грамматике" М., 1958
24. Смирнидский А.И. "Синтаксис английского языка" М., 1906. 90-bet.
25. А.А.Шахматов "Синтаксис русского языка" М., 1941.
26. Уфимцева А.А. "Типы словесных знаков" М., 1974

Badiiy adabiyotlar

1. ASS --- “Australian short stories” M. ,1976
2. ACS --- Christie A. “Selected stories” M., 1976
3. ACS --- Cronin A.S. “The Citadel” M. ,1966
4. CDP -- Parker G. “The Darkness of the morning” Progress publishers, 1978
5. CD -- Ch. Dickense, “Great Expectations”, London., 1985.
6. GKL --- Garrison Hiller “Leaving Home” United States, 1989
7. HEH --- Hemingway E. “To have or have not” M. ,1979
8. FSS --- Cooper F.G. “The Spy” M., 1975
9. MAB --- Maxwell Cathy “All things beautiful” New York, 2004
10. O.X.F --- The Oxford English Dictionary in 12 volumes. Oxford, 1977.
11. PAP --- P. Abrahams “The Path of Thunder” M., 1971
12. SMM --- Maughm S.W. “The Moon and Sixpence” M., 1975
13. WWD – Willian Warton “Dad”, New York, 1987

Lug’atlar:

1. Axmonova O.S. “Slovar lingvusticheskix terminov” M., 1966
2. Axmanova O.S “ Rusko – angliyskiy slovar ” M.,1987
3. Myuller B. K, “ Anglo ruskiy slovar” M., 1987
4. Hornby A.S. “ Oxford student’s dictionary of current English” ox.un.press 1995
- 5 R. Qiyomov, D. Ergashev, S. Egamberdiyev, Y. Temirov “Zamonaviy inglizcha – o’zbekcha lug’at” Toshkent 2009.
6. The Oxford English Dictionary in 12 volumes. Oxford, 1977.